

TA'LIMDA TALABALAR O'RTASIDA BAXSLASHUV TEXNOLOGIYASINI
ANIQ REJASI ASOSIDA TO'G'RI TADBIQ ETISH

Xudoyberdiyev Rahimjon Toshpo'lat o'g'li

magistrant,

Abduraxmanova Baxtixon Ibroxim qizi

talaba

Babayev Asqar Ruzibadalovich

Phd dotsent Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: Talabalar o'zaro suxbat va baxs-munozara jarayonida aniq bir predmetga tayangan holda bir-birlari bilan fikr almashinishi juda muhimdir. Chunki ular o'ziga bo'lgan ishonch va shaxs sifatida prinsipga ega bo'lishi zarurdir. Shu sababli fikrini yetkazib beraolishi uchun albatta baxslashish va munozara maydonida erkin ishtirok etishi shart.

Kalit so'zlar: ta'lim, baxslashuv, qoidalar, boshqaruvchilar, guruxlar, ma'naviyat va ma'rifat

Talabalarning o'quv guruxlarida ularning o'zaro munosabatlarini yanada yaxshilash, bir-birlariga tezlik bilan ko'nikishlari yoki o'zaro bir-birlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari uchun ba'zida ular o'rtasida baxslar tashkil etib turish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday baxslar talabalarni o'z fikrlarini charxlab olishga, xayotga va turli maommalarga bo'lgan munosabatlarini aniqlab olishga kata yordam beradi. Baxs mavzularini talabalarning o'zlari tanlashlari va taklif etishlari mumkin. Bu mavzular ularni baxsga chorlovchi, nuammoli, qiziqarli bo'lishi kerak, aks xolda baxs davomida talabalar o'z fikrlarini bayon eta olmaydilar yoki baxsga qo'shilib o'z fikrlarini isbotlab, ximoya qila olmaydilar. Baxslarga talabalarni ba'zi yanglish fikrlarga qarshi kurashishga o'rgatadi, atrofdagi bo'layotgan voqealarni tushungan xolda to'g'ri sharxlashga, fikrlarida turishga, noo'rin fikrlarga o'z vaqtida qarshilik ko'rsatadi, hamda xar bir fikrni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlab olishga, shu bilan bir qatorda o'rtoqlari bilan suxbat qilish, baxslashish, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olish madaniyatiga o'rgatadi. Baxslar samarali o'tishi, albatta, ularning oldindan qanday tayyorlanganligiga bog'liq. Biz quyida baxslarga tayyorgarlik ko'rishda e'tibor qaratilishi kerak ba'zi bir bosqichlarni ajratib ko'rsatmoqchimiz:

- Baxs mavzusini tanlash va uni tasdiqlab olish;
- Tarbiyaviy vazifalarni aniqlab olish;
- Oldindan baxs mavzusini e'lon qilish va baxs davomida muxokama qilinadigan savollarni belgilab qo'yish;
- Talabalarni baxs davomida muxokama qiladigan savollarini to'laroq yoritishga yordam beradigan qo'shimcha materillarni to'plash;
- Baxsni o'tkazish uchun ma'sul va boshlovchilarni tayinlash;
- Baxs o'tkaziladigan joyni jihozlash;

- Baxslashish qoidalarini rangli,ko'rgazmali etib tayyorlash.Baxs qatnashchilari baxsni o'tkazish va unda o'zlarini tuta bilishi,boshqara olish to'g'risidagi qoidalar bilan oldindan yoki baxs mobaynida tanishib olishlari kerak.Ular quyidagicha bo'lishi mumkin;
 - Baxslashishdan avval nima demoqchi bo'lganingni yaxshilab o'ylab olish;
 - Gapirayotganda fikrlarni aniq,soda,mantiqan va ketma-ketlik bilan bayon qilish;
 - Faqat hayojonga solayotgan,ishonchi komil bo'lgan fikrlarni bayon etishga harakat qilish,bilmagan,ishonmagan fikrlar bilan baxslashmaslik;
 - Kimningdir fikriga qo'shilmasa,uni fikrini masxaralamay,uning ustidan kulmay,xatosini aytmay xaqgo'ylik bilan baxslashmaslik;
 - Aytilgan fikrlarni ikkinchi bor qaytarmasdan,yangi fikr bo'lsagina o'sha fikrni bayon etish;
 - Baxslashuv vaqtida qo'llarni har tomonga o'ynatmasdan,ovozni balandlatmasdan,baqirmasdan gapirish.Agar boshqalarni o'z fikringga ishontirmoqchi bo'lsang,ularni sening fikringga qo'shilishlarini istasang,unda sen o'z fikriningning isbotiga,albatta,aniq dalillar,misollar keltirish;
 - Baxslashayotgan suxbbatdoshni xurmat qilish,uni hafa qilmaslik,uning shaxsiga tegadigan gaplarni,qiliqlarni qilmaslikka harakat qilish.Agar shunday qilinsa,baxslashuvda,faqat kuchli ekanligingni ko'rsatibgina qolmay,balki madaniyatli ekanligini ham ko'rsatgan bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan qoidalar chiroyli va rangli qilib bezatilgan holda uzoqdan ko'rinadigan qilib yozilib,baxs o'tadigan joyga oldindan ilib qo'yiladigan qilib yozilib,baxs o'tadigan joyga oldindan ilib qo'yiladi yoki shunga o'xshash qoidalarni baxsni boshlashdan oldin baxs ishtirokchilari bilan birgalikda ularning bergan takliflari asosida tuzib,shu yerning o'zida qog'ozga yozib qo'yish mumkin.

Baxs o'tayotgan joyni jixozlash va bezashda buyuk pedagog olimlar,mutafakkir va donishmandlar fikrlarini yozib,ko'rinarli joyga ilib qo'yish mumkin.Masalan:

“Qoidani unutma:

Ma'nodan uzoq ketma

Gapni cho'zma,oz gapir

Keng ma'noli,soz gapir”.

Baxsda muhokama qilinadigan savollar,muammolar talabalarni hayojonlantiradigan,quyunlantiradigan,zamonaviy,ularning hayot tarziga tegishli bo'lgan ma'qul.Shunda,ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarida va boshqa joylarda gapirishdan qo'rqadigan,uyaladigan talabalar mana shunday baxslar davomida bemalol o'z fikrlarini bayon eta olishlari mumkin.

Ta'lim muassasalarida kechki payt o'qishdan bo'sh vaqtlarida yotoqxonadagi “Ma'naviyat va ma'rifat” xonasida yoki biron kichik talabalar choyxonasida,qolaversa,agar imkoni bo'lsa gulxan atrofida ham baxslar o'tkazsa bo'ladi.Ochiq tabiat qo'ynida gulxan atrofidagi davralarda talabalarning rkin holdagi baxslari qiziqarliroq hamda ishonchliroq o'tadi.Bunday paytlarda talabalar o'zlarini juda erkin his etadilar va o'z fikrlarini bemalol

tortinmasdan ,qiynalmasdan ayta oladilar.Gulxan atrofidagi bunday baxslarni bir necha guruxlar bilan o‘tkazish mumkin.

Biz quyida baxslar uchun ba‘zi bir mavzularni e‘tiboringizga havola etamiz:

- Hozirgi zamon komil insoni deb kimni aytsa bo‘ladi?
- Madaniyatli inson deb kimni aytsa bo‘ladi?
- Sen qanday yashayapsan?Xayoting qiziqarlimi?
- Haqiqiy do‘st qanday bo‘lishi kerak?
- Moda va men?

Baxslarni o‘tkazish uchun talabalardan bitta yoki ikkita baxs boshqaruvchisi belgilanadi,ular baxsni muhokama qilinishi kerak bo‘lgan mavzu haqidagi kirish so‘zi bilan boshlaydilar.Baxs davomida esa boshqaruvchilar baxslashuvchilar,so‘zga chiquvchilarning bildirayotgan fikrlarini diqqat bilan eshitib,fikrlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida ochib boradilar hamda umumiy xulosa qilishga harakat qiladilar.Baxsni olib boruvchilarni tanlash va ularni tayyorlashda o‘qituvchilarning xizmatlari kata.Baxsni talabalardan tanlangan boshqaruvchilar olib borsada,lekin o‘qituvchilar baxs davomida ularga yordam berishga tayyor turishlari kerak,chunki baxs davomida turli vaziyatlar,qiyinchiliklar tug‘ilishi mumkin.Odatda baxslar o‘qituvchilar tomonidan muhokama etilgan yoki yechilgan muammolarni umumlashtirish hamda biror kerakli tavsiyalar berish va kelgusida o‘tkaziladigan baxslar mavzusini aniqlash bilan tugallanadi.

Baxslarning samarali o‘tishi tanlangan mavzuni muhokama qilish uchun oldindan tayyorlangan savollarga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ishmuxammedov R.J,Abduqodirov A.,Pardayev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar –Iste‘dod,2008.47-bet